



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN OLIB KIRILADIGAN TOVARLARDAN
BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗИМАНИЯ ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ С ТОВАРОВ,
ВВОЗИМЫХ ФИЗИЧЕСКИМИ ЛИЦАМИ**

**IMPROVING THE COLLECTION OF CUSTOMS PAYMENTS ON GOODS IMPORTED
BY INDIVIDUALS**

Ilmiy rahbar: Pardayev To‘lqin Nasirovich

Bojxona instituti “Bojxona to‘lovlari va statistikasi” kafedrası professori, i.f.d. (DSc)

Muqimov Asror Rasulovich

Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi

Boymirzayev Komronbek Musurmon o‘g‘li

Bojxona instituti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya

Maqolada 2021–2025-yillar ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar uchun bojsiz olib kirish normasi (*de minimis*)ning amaliy ishlashi baholangan. Rasmiylashtirilgan bojxona kirim orderlari (BKO) soni, yagona bojxona to‘lovi, rasmiylashtiruv uchun yig‘im va fuqarolar oqimi tahlil qilingan. Deklaratsiya intensivligi, har bir rasmiylashtirilgan BKOga o‘rtacha to‘lov va trendlyzer chizmalari orqali postlar kesimidagi nomutanosibliklar ochib berilgan. Tahlil natijalari asosida ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *de minimis*, bojsiz olib kirish normasi, bojxona kirim orderi, yagona bojxona to‘lovi, deklaratsiya intensivligi, trendlyzer, jismoniy shaxslar, xavfni boshqarish, bojxona to‘lovlari, soddalashtirish.

В статье на основе данных за 2021–2025 годы оценивается практическое применение нормы беспошлинного ввоза для физических лиц (*de minimis*) в Республике Узбекистан. Проанализированы количество оформленных таможенных приходных ордеров (ТПО), единый таможенный платеж, сбор за таможенное оформление и пассажиропоток. С помощью показателя интенсивности декларирования, среднего платежа на один оформленный ТПО и графиков Trendlyzer выявлены различия между таможенными постами. По результатам анализа разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию данного направления.

Ключевые слова: *de minimis*, норма беспошлинного ввоза, таможенный приходный ордер, единый таможенный платеж, интенсивность декларирования, Trendlyzer, физические лица, управление рисками, таможенные платежи, упрощение.

The article evaluates the practical application of the duty-free allowance for individuals (*de minimis*) in the Republic of Uzbekistan based on data for 2021–2025. The study analyzes the number of issued customs receipt orders (CRO), unified customs payment, customs clearance fee and passenger flow. Declaration intensity, the average payment per issued CRO and Trendlyzer charts are used to identify disparities across customs posts. Based on the results of the analysis, scientifically grounded proposals and recommendations have been developed to improve this area.

Keywords: *de minimis*, duty-free allowance, customs receipt order, unified customs payment, declaration intensity, Trendlyzer, individuals, risk management, customs payments, simplification.

Bojsiz olib kirish normasi xalqaro amaliyotda *de minimis* tushunchasi bilan ifodalanib, shaxsiy ehtiyoj uchun olib kiriladigan past qiymatli tovarlarga ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni qo'llamaslik va bojxona resurslarini fiskal ahamiyatli hamda xavf ehtimoli yuqori holatlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Shu bois uning samaradorligi faqat undirilgan bojxona to'lovlari hajmi bilan emas, balki chegara o'tkazish punktlaridagi rasmiylashtirish yuklamasi, fuqarolar uchun ma'muriy barerlar hamda bojxona nazoratining xavf profillariga muvofiq maqsadli tashkil etilganlik darajasi bilan baholanadi. Qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi va JSTning Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitimi ham past qiymatli jo'natmalar bo'yicha tartib-taomillarni soddalashtirishni bojxona ma'muriyatchiligidan muhim vositasi sifatida e'tirof etadi [1].

O'zbekiston Respublikasida *de minimis* rejimini baholashda tovarning shaxsiy ehtiyoj yoki tijorat maqsadida olib kirilayotganini farqlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi shaxsiy ehtiyoj uchun va tadbirkorlik faoliyatiga mo'ljallanmagan tovarlarni notijorat maqsaddagi tovarlar sifatida belgilaydi. 2025-yil 19-apreldagi “Ayrim turdagi tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 244-son Qarorda esa bojsiz olib o'tish normalari, me'yordan ortiq qismga yagona bojxona to'lovi qo'llanishi hamda tovar maqsadini aniqlash mezonlari aniqlashtirilgan [2]. Mazkur maqola 2021–2025-yillar statistikasi asosida *de minimis* mexanizmining amaliy ishlashini transport yo'nalishlari, bojxona postlari, deklaratsiya intensivligi va fiskal natijadorlik kesimida kompleks baholashga qaratilgan.

Tadqiqotning amaliy asosini 2021–2025-yillar bo'yicha BKO soni, yagona bojxona to'lovi, rasmiylashtiruv uchun yig'im, post toifalari va fuqarolar harakati haqidagi statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Tahlilda yo'lovchi oqimi bilan bevosita bog'liq avto, avia va temir yo'l yo'nalishlari qamrab olinib, yillar hamda yo'nalishlar kesimida asosiy ko'rsatkichlar hisoblandi. Deklaratsiya intensivligi BKO sonining fuqarolar soniga nisbati asosida, bir BKOGa to'g'ri keladigan o'rtacha to'lov esa jami undirilgan bojxona to'lovlari BKO soniga bo'lish orqali aniqlandi. Postlar kesimidagi rasmiylashtirish intensivligi, fiskal natijadorlik va *de minimis* amaliyotidagi nomutanosibliklar Trendlyzer yondashuvi asosida baholandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlar bo'yicha *de minimis* mexanizmi bojxona nazoratini amalga oshirish va bojxona to'lovlari undirish amaliyotida muhim tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Yo'lovchi oqimi bilan bevosita bog'liq avto, avia va temir yo'l yo'nalishlari kesimida 2025-yilda jami undirilgan bojxona to'lovlari 232,97 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 216,94 mlrd so'm. yagona bojxona to'lovi, 16,03 mlrd. so'm esa rasmiylashtiruv uchun yig'im hissasiga to'g'ri keladi. Biroq *de minimis* samaradorligini faqat fiskal tushum hajmi bilan baholash yetarli emas. Shu bois, *de minimis* samaradorligini baholashda asosiy e'tibor undirilgan to'lovlar hajmining o'ziga emas, balki ushbu BKOlarni rasmiylashtirish qanday holatlar hisobiga yuzaga kelganiga qaratilishi lozim. Agar BKOlarni xavf darajasi past bo'lgan yo'lovchi oqimining ortiqcha rasmiylashtirilishi hisobiga shakllangan bo'lsa, bu mexanizm samaradorligi yetarli emasligini bildiradi. Aksincha, rasmiylashtirishlar asosan me'yordan oshgan yoki xavf belgilari mavjud holatlarni ajratish natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, bu *de minimis* mexanizmining maqsadli va samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlari tahlil davrida BKO rasmiylashtiruv va undirilgan bojxona to'lovlari hajmi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Avto, avia va temir yo'l yo'nalishlarida BKO soni 2021-yildagi 8 450 tadan 2025-yilda 160 512 taga yetgan, jami to'lovlar esa 47,61 mlrd so'mdan 232,97 mlrd so'mgacha ko'paygan. Bu holat *de minimis* amaliyotining fiskal qamrovi kengayganini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm sifatini baholashda faqat BKO soni yoki jami tushum emas, balki rasmiylashtirish yuklamasi, bir BKOGa to'g'ri keladigan o'rtacha to'lov va xavf profillariga asoslangan saralash natijalari ham inobatga olinishi zarur (1-jadval).


2021–2025-yillarda Bojxona kiritim orderini rasmiylashtirish orqali jismoniy shaxslardan undirilgan bojxona to‘lovlari dinamikasi

Yil	BKO soni, (dona)	Yagona bojxona to‘lovi, (mlrd. so‘m)	Rasmiylashtiruv uchun yig‘im, (mlrd. so‘m)	Jami to‘lov, (mlrd. so‘m)	1 BKOGa o‘rtacha to‘lov, (mln. so‘m)
2021	8 450	47,04	0,57	47,61	5,63
2022	23 121	22,23	1,67	23,90	1,03
2023	74 408	64,79	6,05	70,85	0,95
2024	93 647	119,88	8,17	128,05	1,37
2025	160 512	216,94	16,03	232,97	1,45

Manba: Bojxona qo‘mitasi statistik ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tahlil natijasida 2021–2025-yillarda BKO rasmiylashtiruv va jismoniy shaxslardan undirilgan bojxona to‘lovlari hajmi sezilarli oshganini ko‘rsatadi. Tahlil davrida BKO soni 8 450 tadan 160 512 taga, jami to‘lovlar esa 47,6 mlrd. so‘mdan 233,0 mlrd. so‘mgacha ko‘paygan. Biroq 2022-yilda BKO soni oshganiga qaramay, jami to‘lovlar kamaygani rasmiylashtirish hajmi va undirilgan to‘lovlar har doim mutanosib harakatlanmasligini ko‘rsatadi. Shu bois *de minimis* samaradorligini BKO soni, jami to‘lovlar va bir BKOGa o‘rtacha to‘lov bilan birgalikda baholash zarur (1-rasm).

2021-2025-yillarda transport yo‘nalishlari bo‘yicha BKO soni va jami undirilgan bojxona to‘lovlari dinamikasi



1-rasm. 2021–2025-yillarda BKO soni va jami undirilgan bojxona to‘lovlari dinamikasi

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, bojsiz olib kirish normasining amaliy ta‘siri transport yo‘nalishlari kesimida bir xil shakllanmagan. Xususan, 2025-yilda AVIA yo‘nalishida jismoniy shaxslardan undirilgan bojxona to‘lovlari 171,35 mlrd. so‘m bilan asosiy tahlil bazasidagi jami to‘lovlarning 73,55 foizini tashkil etgan. Avtomobil o‘tkazish punktlari 60,33 mlrd. so‘m yoki 25,90 foiz ulushga ega bo‘lgan, temir yo‘l yo‘nalishining ulushi esa 1,28 mlrd. so‘m yoki 0,55 foizdan iborat bo‘lgan. Bu holat *de minimis* mexanizmining eng katta fiskal natijasi AVIA yo‘nalishida shakllanayotganini, avtomobil o‘tkazish punktlari esa postlar kesimidagi ichki nomutanosibliklarni aniqlash uchun muhim tahliliy maydon bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi (2-jadval).

2025-yilda transport yo‘nalishlari bo‘yicha BKO va bojxona to‘lovlari taqsimoti

Yo‘nalish	BKO soni, (dona)	Yagona bojxona to‘lovi, (mlrd. so‘m)	Rasmiylashtiruv uchun yig‘im, (mlrd. so‘m)	Jami to‘lov, (mlrd. so‘m)	Ulush, % da
AVIA	100 164	161,26	10,09	171,35	73,55
AVTO	59 186	54,51	5,82	60,33	25,90
Temir yo‘l	1 162	1,17	0,12	1,28	0,55

***Manba:** Bojxona qo‘mitasi statistik ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Tahlil natijalari avtomobil o‘tkazish punktlarida deklaratsiya intensivligi sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Eng yuqori ko‘rsatkich “Xo‘jayli” chegara bojxona postida qayd etilgan bo‘lib, ushbu postda har 10 ming nafar yo‘lovchiga 883,38 ta BKO to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich “Shovot” chegara bojxona postiga nisbatan qariyb 10,9 baravar, Do‘stlik postiga nisbatan esa 36 baravardan ortiq yuqoridir. Shu bilan birga, “Xo‘jayli” chegara bojxona postida jami undirilgan bojxona to‘lovlari 2,49 mlrd so‘mni, bir BKOGa to‘g‘ri keladigan o‘rtacha to‘lov esa 1,29 mln so‘mni tashkil etgan. Demak, mazkur postdagi asosiy farq jami tushum hajmining kattaligida emas, balki yo‘lovchi oqimiga nisbatan BKO rasmiylashtiruvi soni nihoyatda yuqori darajada jamlanganida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat deklaratsiya intensivligini baholashda faqat BKO soniga emas, balki fuqarolar oqimi va rasmiylashtirish sabablariga ham e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi (3-jadval).

2025-yilda avtomobil o‘tkazish punktlarida deklaratsiya intensivligi eng yuqori bo‘lgan postlar


Post nomi	Fuqarolar, mln nafar	BKO soni	Deklaratsiya intensivligi	1 BKOGa o‘rtacha to‘lov, mln so‘m	Jami to‘lov, mlrd so‘m
Xo‘jayli	0,02	1 921	883,38	1,29	2,49
Shovot	0,31	2 512	81,18	1,01	2,53
Sirdaryo	0,13	934	71,74	0,79	0,74
Daut-ata	0,26	1 245	47,50	1,05	1,31
Uchqo‘rg‘on	0,72	2 373	32,92	0,63	1,50
Yallama	1,15	3 458	30,15	1,94	6,70
Gulbahor	0,27	712	26,24	0,37	0,26
Kosonsoy	0,66	1 698	25,58	1,00	1,70
Do‘stlik	5,24	12 622	24,07	0,51	6,47
Olot	0,58	1 198	20,72	0,76	0,91

***Manba:** Bojxona qo‘mitasi statistik ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Jadval ma‘lumotlari avtomobil o‘tkazish punktlarida deklaratsiya intensivligi postlar kesimida keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Eng yuqori ko‘rsatkich “Xo‘jayli” chegara bojxona postida qayd etilib, har 10 ming yo‘lovchiga 883,38 ta BKO to‘g‘ri kelgan; bu “Shovot” chegara bojxona postiga nisbatan 10,9 baravar, “Do‘stlik” chegara bojxona postiga nisbatan esa 36 baravardan ortiq yuqori. Shu bilan birga, “Xo‘jayli” chegara bojxona postida jami to‘lov 2,49 mlrd. so‘mni, bir BKOGa o‘rtacha to‘lov 1,29 mln. so‘mni tashkil etgan. Demak, mazkur postdagi asosiy xususiyat jami tushum hajmining yuqoriligida emas, balki yo‘lovchi oqimiga nisbatan BKO rasmiylashtiruvi nihoyatda zich shakllanganida namoyon bo‘ladi. Bunday ko‘rsatkichlarni talqin qilishda postning faoliyat rejimi, yo‘lovchi va yuk oqimi tarkibi hamda BKO rasmiylashtirilishiga sabab bo‘lgan omillar alohida hisobga olinishi zarur.

Trendlyzer chizmasi jadvaldagi farqlarni vizual tarzda ochib beradi: har bir pufakcha bitta avtomobil o‘tkazish punktini, uning hajmi esa shu postda undirilgan jami bojxona to‘lovlari bildiradi. Absissa o‘qida deklaratsiya intensivligi, ordinata o‘qida bir BKOGa to‘g‘ri keladigan o‘rtacha bojxona to‘lovi aks ettirilgan. Yaqinlashtirilgan ko‘rinishda 32 ta post tasvirlangan bo‘lib,

“Xo‘jayli” va “Shovot” chegara bojxona postlari juda yuqori intensivlik sababli kadr tashqarisida qoldirilgan (2-rasm).



2-rasm. 2025-yilda Avtomobil o‘tkazish punktlari bo‘yicha deklaratsiya intensivligi va fiskal mazmunning Trendlyzer ko‘rinishi

1	Navoiy	12	Jartepa	23	Mingtepa
2	Do‘stlik (Andijon)	13	Qorasuv	24	Oybek
3	Yallama	14	G‘ishtko‘prik	25	Andarxon
4	Uchqo‘rg‘on	15	Gulbahor	26	Farg‘ona
5	Sariosiyo	16	Oq oltin	27	Farhod
6	Madaniyat	17	O‘zbekiston	28	Bekobod avto
7	Kosonsoy	18	Malik	29	Rishton
8	Dovut-ota	19	Ayritom	30	Rovot
9	Olot	20	Pop	31	So‘x
10	Xonobod	21	Xovosobod	32	Do‘stlik (Xorazm)
11	Sirdaryo	22	S.Najimov		

Izoh: Xo‘jayli va Shovot postlari deklaratsiya intensivligi nihoyatda yuqori bo‘lgani sababli 3-rasmda yaqinlashtirilgan ko‘rinishdan tashqarida qoldirilgan.

Chizma shuni ko‘rsatadiki, yuqori deklaratsiya intensivligi har doim ham yuqori fiskal natijani anglatmaydi: ayrim postlarda rasmiylashtirish holatlari ko‘p bo‘lsa-da, bir BKOga o‘rtacha to‘lov past shakllanadi, ayrim postlarda esa BKO soni kamroq bo‘lsa ham, har bir rasmiylashtirishning fiskal qiymati yuqoriroq bo‘ladi. Shu bois *de minimis* samaradorligini baholashda BKO soni yoki jami tushum bilan cheklanmay, deklaratsiya intensivligi, o‘rtacha to‘lov va postlar kesimidagi jami fiskal natija birgalikda tahlil qilinishi lozim.

Tadqiqot natijalari *de minimis* mexanizmini barcha postlarda bir xil tartibda qo‘llash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bois birinchi taklif — bojxona nazoratini postlarning real faoliyat rejimi, yo‘lovchi oqimi, deklaratsiya intensivligi va bir BKOga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha to‘lovdan kelib chiqib tabaqalashtirishdir. Deklaratsiya intensivligi yuqori, biroq o‘rtacha to‘lov past bo‘lgan postlarda past qiymatli, shaxsiy ehtiyojga oid va xavf darajasi past tovarlar uchun oldindan elektron baholash, tezkor hisob-kitob va soddalashtirilgan rasmiylashtirish tartiblarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi taklif — fiskal samaradorligi yuqori bo‘lgan BKOlarni aniqlashga qaratilgan xavf indikatorlarini kuchaytirishdir. Bunda tovar qiymati, bir turdagi tovarlarning takroriy olib kirilishi,

safarlar davriyligi va shaxsning avvalgi rasmiylashtirish tarixi asosiy mezon sifatida olinishi lozim. Bu yondashuv *de minimis* normasidan tijoratga yaqin maqsadlarda foydalanish ehtimolini kamaytiradi hamda bojxona resurslarini haqiqatan fiskal ahamiyatli va xavf belgilari mavjud holatlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Uchinchi taklif — fuqarolar uchun oldindan ma’lumot beruvchi raqamli servisni joriy etishdir. Fuqaro safardan oldin tovar qiymati, miqdori, transport yo‘nalishi va safarlar takroriyligini kiritib, bojsiz olib kirish normasi qo‘llanishi yoki BKO rasmiylashtirilishi ehtimoli haqida dastlabki ma’lumot olishi kerak. Bu chegara punktlarida noaniqlik va nizoli holatlarni kamaytiradi, xavf darajasi past bo‘lgan fuqarolar harakatini tezlashtiradi hamda bojxona xodimlarining ish samaradorligi oshiradi tejaydi.

To‘rtinchi taklif — BKO ma’lumotlari asosida yagona analitik bazani shakllantirishdir. Ushbu bazada har bir BKO bo‘yicha tovarlarning qiymati, turi, takroriy olib kirish holatlari va rasmiylashtirish sabablari aks ettirilishi lozim. Ushbu ma’lumotlar yuqori deklaratsiya intensivligi haqiqiy xavf belgilaridan kelib chiqqan holatlar bilan post faoliyatining o‘ziga xosligi sababli yuzaga kelgan holatlarni aniq ajratishga yordam beradi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar statistikasi O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlar bo‘yicha *de minimis* mexanizmi fiskal ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. 2025-yilda yo‘lovchi oqimi bilan bevosita bog‘liq avtomobil o‘tkazil punktlari, AVIA va temir yo‘l yo‘nalishlarida jami undirilgan bojxona to‘lovlari 232,97 mlrd. so‘mga yetgan. AVIA yo‘nalishi fiskal natija bo‘yicha yetakchi bo‘lsa, avto yo‘nalishi postlar kesimidagi ichki nomutanositliklarni eng aniq ko‘rsatadigan segment sifatida ajralib turadi.

Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, *de minimis* O‘zbekistonda amalda qo‘llanmoqda, biroq uning samaradorligi yo‘nalishlar va postlar kesimida bir xil emas. Shu sababli eng maqbul yondashuv xavf darajasi past yo‘lovchilar harakatini tezlashtirish, me’yordan oshgan, takroriy yoki tijoratga yaqin belgilar mavjud holatlarda esa nazoratni kuchaytirishdan iborat. Ana shunda *de minimis* fuqarolar uchun ma’muriy yuklamani kamaytiradi, bojxona organlari resurslarini tejaydi va davlatning fiskal manfaatlarini to‘laqonli ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Customs Organization. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention). General Annex, Chapter 4. URL: <https://www.wcoomd.org/>
2. World Customs Organization. Guidelines to Chapter 4 of the General Annex to the Revised Kyoto Convention: Duties and Taxes. URL: <https://www.wcoomd.org/>
3. World Trade Organization. Trade Facilitation Agreement. Article 7.8.2(d). URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/tfa-nov14_e.htm
4. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. O‘RQ-400-son, 20.01.2016. URL: <https://lex.uz/acts/-2876354>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 244-son qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7484114>
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2016-yil 29-fevraldagi 01-02/15-07-son qarori bilan tasdiqlangan Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma. Ro‘yxat raqami 2773, 06.04.2016. URL: <https://lex.uz/docs/-2924955>
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagi 102-son qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5308718>
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 463-son qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3791922>
9. Hillberry R., Karabay B., Tan S.W. Risk Management in Border Inspection. Journal of Development Economics. 2022. Vol. 154. Article 102748.
10. Karklina-Admine S., Cevers A., Kovalenko A., Auzins A. Challenges for Customs Risk Management Today: A Literature Review. Journal of Risk and Financial Management. 2024. Vol. 17(8).